

Kunduzi Va Tunda Amaliy O'q Otish Mashg'Ulotlarini Tashkillashtirish Va O'Tkazish Uslubi

Maxamadiyev Z.SH

H.F.F.D (PhD), podpolkovnik, Quruqlikdagi qo'shinlar instituti sikl boshlig'i

Annotatsiya. Ushbu maqolada amaliy o'q otish mashg'ulotlarini tashkillashtirish va o'tkazish uslubi to'g'risida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: otish tayyorgarligi, jangovar tayyorgarlik tizimi, metodika.

Аннотация. В данной статье представлен организация и проведения занятия в практических стрельбы.

Ключевые слова: огневая подготовка, система боевой подготовки, методика.

Annotation. This article presents the training systems organization of their physical training, and the methodology of conducting practical shooting exercises.

Keywords: combat training systems, foreign experience, methodology.

Otish tayyorgarligi motoo'qchi bo'linmalari dala malaka o'rganishlarining (bilimlarining) tarkibiy qismi hisoblanadi.

Otish tayyorgarligining asosiy vazifalari shaxsiy tarkibning shtatdagi qurolini epchillik (o'quv) bilan qo'llash va uning jangovar imkoniyatlarini dushmanni mag'lubiyatga uchratishda zamonaviy jangning turlicha sharoitlarida vaqt va o'q-dorilarni juda kam miqdorda sarflab maksimal qo'llash, ta'lim oluvchilarda o'z quroliga ishonch ko'nikmalarini ishlab chiqish, o't ochish vazifalarini hal etishda faollik va mustaqillikni tarbiyalashdan iborat.

Jangda o't ochish vazifalarini samarali hal etish uchun bo'linmalar shaxsiy tarkibi quyidagilarni bilishi shart:

- qurol-aslaha va o'q-dorilarning jangovar imkoniyatlari va moddiy qismini, otishning asoslari va qoidalarini;


- qurol-aslaha va o'q-dorilarni otishga tayyorlashni bilish va ularni doimiy jangovar shaylikda tutish, nishonni kuzatuv bilan razvedka qilish, ulargacha bo'lgan masofani aniqlash, to'g'ri nishon ko'rsatma berish va dushman o't ochishidan ogohlantirish, bexato o't ochishni ham mustaqil ravishda, ham bo'linma tarkibida olib borish, turlicha nishonlarga shtatdagi quroldan barcha uzoqliklarda birinchi o'q uzishda yakson qilishni;

- qurol-aslaha bilan harakatlanishda va otish qoidalarini shtatdagi quroldan barcha usullar bilan (joydan turib, qisqa to'xtashlar va harakatdan to'xtamagan holda) paydo bo'luvchi va harakatlanuvchi yerdagi va havodagi nishonlarni kunduzi va kechasi, ob-havoning hamda joyning har qanday sharoitlarida qo'llash, shuningdek, qo'l granatalarini joydan turib va harakatda ulotirishda puxta ko'nikmalarga ega bo'lishi.

Bundan tashqari shartnoma bo'yicha harbiy xizmatchi ofitserlar va serjantlar jangning barcha turlarida o'z bo'linmalarining o't ochishini boshqara olishlari kerak.

TA'LIM BERISH (O'QITISH) SHAKLLARI

Otish tayyorgarligiga oid bilim va ko'nikmalarni ta'lim oluvchilar sinf mashg'ulotlarida, otish mashqlarida, o'quv otish mashqlarida, jangovar otish mashqlarida, qurol-aslaha va jangovar texnikaga xizmat ko'rsatish soatlarini o'tkazishda, park-xo'jalik va park kunlarida, mustaqil tayyorgarlikda, o't ochish musobaqalarida va o'qitishning boshqa fan mashg'ulotlarida egallaydilar va mustahkamlashtiradilar.



Sinf mashg'ulotlarida odatda qurol, o'q-dori, nishonga olish va kuzatish asboblarning vazifalari, jangovar xususiyatlari va tuzilishi o'rganiladi. Ta'lim oluvchilar bu masalalarga oid bilim ko'nikmalarini keyinchalik otish mashqlarida, otishlarda va o'qitishning boshqa shakllarida mukammallashtiriladi.

O'q otish mashqlarida qurol bilan harakatlanish vaqtida harakatlanuvchi va paydo bo'luvchi nishonlarni kuzatuv olib borishda ulargacha bo'lgan uzoqliklarni aniqlash, nishon ko'rsatmalarini berish, otish qoidalarini amalda qo'llash, qo'l granatalarini uloqtirish va bo'linmalar o't ochishini boshqarishda, jangda turlicha o't ochish vazifalarini unumli hal etish uchun zarur ko'nikmalar ishlab chiqiladi va mukammallashtiriladi. Otish mashqlarini muntazam ravishda sifatli o'tkazish bo'linmalarining otish tayyorgarligidan yuqori natijalarga erishishini ta'minlaydi.

O'quv otish mashqlarini bajarishda ta'lim oluvchilar qurol-aslaha bilan harakatlarda, shtatdagi o'q-dorilar yoki ular o'rnini bosuvchi o'q-dorilar bilan jangovar vaziyatga yaqinlashtirilgan sharoitlarda amaliyotni qo'lga kiritadilar, shu bilan bir vaqtda ta'lim oluvchilarning o't ochish ko'nikmalari darajasi tekshiriladi.

Jangovar otishda va jangovar otishli taktik mashqlarida bo'linma komandirlarining jangni tashkil etish, bo'linmalar va ular o't ochishni boshqarishdagi ko'nikmalari mukammallashtiriladi, shaxsiy tarkib esa bo'linma tarkibida turlicha o't ochish vazifalarini jangovar vaziyatga maksimal yaqinlashtirilgan vaziyatda hal etish ko'nikmalarini mustahkamlaydi, bir vaqtning o'zida bo'linmalar jipsligi tekshiriladi.

Mustaqil tayyorgarlik soatlarida ta'lim oluvchilar odatda qurol moddiy qismi, otish asoslari va qoidalariga oid egallagan bilimlarni mustahkamlaydilar va qurol bilan harakatlanish va otish qoidalarini qo'llashdagi ko'nikmalari mustahkamlashtiriladi.

Otish musobaqalarini o'tkazishda bo'linmalar shaxsiy tarkibining otish ko'nikmalari mustahkamlashtiriladi.

TA'LIM BERISH (O'QITISH) USULLARI

Otish tayyorgarligida odatda ta'limning quyidagi usullari qo'llaniladi: hikoya qilish, ma'ruza, tushuntirish, namoyish etish, mashq qilish, suhbat, mustaqil ish va otish. Ta'lim berish usullarini tanlash, mashg'ulot mavzusi, maqsadi, mazmunidan va ta'lim oluvchilar darajasidan kelib chiqadi. Har bir mashg'ulotda bir necha usullar qo'llanilishi mumkin. Masalan, otish usullarini o'qitishda namoyish etish, tushuntirish va mashq qilish qo'llanilishi mumkin.


Hikoya qilish – o'rganayotgan materialning qisqa bayoni. U qurol jangovar xususiyatlarini o'rganish va qurol moddiy qismi otish asoslari bo'yicha ba'zi bir savollarni o'rganishda qo'llaniladi.

Ma'ruza – o'rganayotgan mavzuning asosiy, eng murakkab savollarini ilmiy – nazariy bayon etish. Ma'ruzaning bosh maqsadi – ta'lim oluvchilarga keyingi ishlarida yordam berish. Harbiy o'quv muassasalarida ma'ruzalar odatda ayrim mavzularni, ayniqsa otish asoslari va qoidalarini o'rganishda qo'llaniladi.

Tushuntirish – o'rganilayotgan hodisalar, jarayonlar, harakatlar mohiyatini bayon etish. Tushuntirish o't ochish tayyorgarligining barcha bo'limlarini o'rganishda qurolni (o'q-dori, asbob) yoki qurol bilan harakatlanishni namoyish etish birgalikda qo'llaniladi. Tushuntirishda materialni aniq va ravshan, xulosa va ta'riflarni qat'iy ifodalash bilan bayon etish.

Namoyish etish ta'lim berishning eng tushunarli usuli hisoblanadi.

Bu usulda ta'lim oluvchilar nimani o'rganishi va nimani o'zlashtirishlarini yaqqol ko'radilar. Qurol bilan namunaviy harakatlarni namoyish etish komandir tomonidan yoki yaxshi tayyorlangan ta'lim oluvchi tomonidan o'tkazilishi mumkin. Dastlab usul (harakat)



zarur sur'atda so'ng sekinlashtirilgan sur'atda qismlar bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan ushbu usulni o'rganishda yo'l qo'yiladigan harakat va o'ziga xos xatoliklarni qisqacha tushuntirishi bilan namoyish etiladi. Namoyish etiladigan predmet (usul, harakat) ta'lim oluvchilar uchun yaxshi ko'rinishi muhim

Mashq qilish (mashq) – ta'limning o'rganiladigan harakatlarini ko'p marta, maqsadga yo'naltirilgan holatda va ongli ravishda takrorlash yo'li bilan ta'lim olish usuli bo'lib, ta'lim oluvchilarda bilim va ko'nikmalar ishlab chiqiladi va mukammallashtiriladi.

Otish tayyorgarligiga oid mashq qilishlar yakka va guruh (hisob, bo'linmalar tarkibida) bo'lishi mumkin. Yakka mashq qilishlar (mashqlar) alohida jangchi uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni ta'lim oluvchilarda ishlab chiqish uchun qo'llaniladi. Ular alohida ta'lim oluvchilarning komandir rahbarligi ostida yoki mustaqil ravishda uning vazifasi bo'yicha bir xil harakatlarni bajarishni ta'rifiylaydilar.

Guruhiy mashq (mashqlar) ta'lim oluvchilarda jamoaviy harakatlardagi bilim va ko'nikmalarni ishlab chiqadi. Ular har bir ta'lim oluvchi o'z mutaxassisligi bilan muvofiqlikda harakatlarni bajarish yoki u tomonidan vaqtincha ushbu mashg'ulotda egallanadigan lavozim bilan ta'rifiylanadi (masalan, BMP qurol-aslahasini jangovar holatga keltirish yoki bo'linma tarkibida o't ochish vazifalarini hal etish).

Otish tayyorgarligiga oid mashq qilishlar (mashqlar) odatda me'yorlarda maxsus ishlab chiqilgan tayyorlov mashqlarini bajarish yo'li bilan o'tkaziladi. Bunda me'yor va tayyorlov otish mashqlarini bajarish shartlari ta'lim oluvchilar tomonidan bilim va ko'nikmalarni egallashda murakkablashishi kerak.

Suhbat – ta'lim berishning shunday usuliki, unda komandir qo'yilgan savollarga ta'lim oluvchilardan javoblar talab qiladi. Suhbat barcha ta'lim oluvchilar faolligini yuzaga keltiradi.


Suhbat oldingi mavzuni mustahkamlash, o'rganuvchilarning bilimini tekshirish va ularga yangi bilimlarni yetkazish maqsadida qo'llaniladi. Suhbat olib borishning asosini suhbat maqsadiga va xarakteriga qarab tuziladi.

Savol qo'yishda barcha ta'lim oluvchilarga murojaat qilish kerak: dastlab savol qo'yish, o'ylab ko'rish uchun zarur vaqt berish va shundan keyingina so'rovga o'tish shart. Bunda suhbatni faqat yaxshi o'zlashtiruvchilar bilan emas, balki suhbatga o'zi faollik ko'rsatmaganlarni ham jalb etish kerak.

Agar ta'lim oluvchi javob berishga qiynalsa, javob noto'g'ri yoki to'liq bo'lmasa, komandir xuddi shu savolga javobni boshqa ta'lim oluvchidan talab etadi. Kerakli hollarda ta'lim oluvchilar javoblarini umumlashtirib to'g'ri ifodalaydi.

Mustaqil ish ta'lim oluvchilar komandirlarning bevosita yordamisiz avval egallagan bilimlari ko'nikmalarini qo'llanma, yo'riqnoma, chizma, maket, o'quv quroli va boshqa o'quv qo'llanmalardan foydalanish bilan mustahkamlaydilar.

Otish - bu ta'lim oluvchilar shtatdagi qurol va o'q - dorilarni turli nishonlarga zarba berishda, jangovar qo'llashda, olgan bilim ko'nikmalarini amalda qo'llaydilar. Otishlar faqat egallangan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlabgina qolmay, o't ochish tayyorgarligidagi kamchiliklarni topish imkonini beradi. Shuning uchun otish natijalari sinchiklab tahlil etilishi va ular asosida shaxsiy tarkibning o't ochish amaliyotini oshirish bo'yicha choralar qabul qilinishi kerak.



MASHG'ULOTNI TASHKILLASHTIRISH VA O'TKAZISH USLUBIYOTI

Qurol-yarog', o'q-dorilarni imkoniyatini puxta bilish, qurollarning qism va mexanizmlarini otish vaqtida ishlash tamoyillarini, qurol va o'q-dorilarga to'g'ri xizmat ko'rsatish va saqlash, jangda ularni mohirona ishlatish va doimiy jangovar holatda saqlashni ta'minlaydi. Bu bilimlar guruh mashg'ulotlarda qurollarning moddiy qismlarini o'rganish bo'yicha, keyinchalik otish mashg'ulotlarida, qurollarga xizmat ko'rsatishi, ularni ishlatish bo'yicha va boshqa mashg'ulotlarda takomillashtiriladi.

Motoo'qchi o'quv bo'linmalarida qurollarning moddiy qismlarini o'rgatish bo'yicha vzvod tarkibida o'tkaziladi; shunday o'tiladiki – vzvodda guruhlar tashkillashtiriladi, bir xil soha bo'yicha masalan: - otuvchilar guruhi (avtomatchilar) va qo'l pulemyotchilari, granatomyotchilar va ularning yordamchilari, BTRlarda o'rnatilgan pulemyot yo'naltiruvchilari. Askarlar bilan qurollarning moddiy qismlarini o'rganish uchun guruhlar o'rtasida kichik guruhlar tashkil qilish mumkin masalan: o'qchilar, merganlar, granatomyotchilar. Guruhlarda mashg'ulotlar seksiya komandirlari yoki guruh komandiri o'rinbosari boshchiligida o'tkaziladi. Zaruriyat tug'ilganda alohida guruhlar bilan mashg'ulot o'tish uchun guruh komandirlari va vzvod komandirlari jalb etilishi mumkin. Otish mashqlarida, qurollarning moddiy qismini o'rganish uchun seksiya komandirlari tomonidan guruh komandiri rahbarligida maxsus tayyorlangan o'quv joylarida o'rganiladi. Guruh mashg'ulotlari davomiyligi har doimgidek 1-2 soat bo'lishi mumkin, otish mashg'ulotlarida esa 30 daqiqa atrofida bo'ladi.

Parashyut-desant, pulemyotchi, razvedkachilar bo'linmalarida ham qurollarning moddiy qismlarini o'rganish bo'yicha mashg'ulotlar taxminan motoo'qchi bo'linmalariga o'xshab tashkillashtiriladi.


Bir namuna qurol turini o'rganuvchi bo'linmalar mashg'ulotlari seksiyalarda seksiya komandiri rahbarligida tashkillashtiriladi.

O'quv bo'linmalarida va o'quv bilim yurtlarida qurollarning moddiy qismlari bir guruhda shaxsiy tarkib bilan guruh komandiri (o'qituvchi) rahbarligida o'tkaziladi, bunda seksiya komandirlari rahbar yordamchilari roliga bo'lishadi.

Qurollarning moddiy qismlari, jangovar tayyogarlik dasturlariga (o'quv dasturlariga) asosan quyidagi ketma-ketlikda olib boriladi: vazifasini, jangovar xususiyatlari va qurolning umumiy tuzilishi, noto'liq qismlarga yoyish va yig'ish tartibi; qism va mexanizmlarining ishlashi, otish paytida ehtimoliy sodir bo'ladigan nosozliklar va ularni bartaraf etish usullari, qurolga xizmat ko'rsatish, uni saqlash va avaylash, qurolni ko'rikdan o'tkazish va otishga tayyorlash, shu bilan birga qurolning mo'ljallagichini rostlash, qurolning jangovarligini tekshirish va me'yoriy uradigan holatga keltirish. Qurollarning qism va mexanizmlarini o'rgatish bo'yicha boshqacha usul bilan ham foydalanish mumkin masalan: qurolni noto'liq va to'liq qismlarga yoyish va yig'ishdan so'ng o'rganuvchilarni qurolni tozalash va moylash, qurolga xizmat ko'rsatish va saqlashni o'rgatish. Agar har bir o'rganuvchi qurolning moddiy qismlarini qo'llanmada ko'rsatilganidek bilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qurollarning moddiy qismlarini o'rganishda asosiy ahamiyatni qurollar bilan ishlashda amaliy yoyish va yig'ish, tozalash va moylash, yig'ilgan tartibda va yoyilgan tartibda ko'rikdan o'tkazish, olishga tayyorlashni bilishga, otishda mahoratini oshirishga, otish vaqtida to'xtashlar sodir bo'lsa ularning sabablarini bilib, bartaraf etishga qaratilishi kerak. O'rganuvchilarga o'z quroliga Vatanni himoya qilishda ishonch, qurolga mehrini o'yg'otish va qurolni a'lo darajada bilishiga va asrab avaylashni ularda shakllantirish; quollarimizning dushman qurolidan ustunligini ko'rsatish; qurollarni ishlab chiqqan konstruktorga faoliyati bilan tanishtirish (ixtirochi konstruktorga V. A. Degtyarev, P. M. Goryunov, M. T. Kalashnikov va boshqalar).

Moddiy qismlarni o'rgatish bo'yicha mashg'ulotlarni, oldingi mashg'ulotlarda o'tilgan savollarni takrorlashdan boshlanishi zarur. O'tilgan mavzular suhbat, savol-javob usuli bilan



tekshirishi mumkin yoki amaliy qurollar bilan ishlashda masalan, qurolni yoyish va yig'ish va hokazo. Qurollarni moddiy qismlarini o'rganish bo'yicha o'rgatishning asosiy usullaridan biri, ko'rsatish, tushuntirish va qurol bilan mashq qilish.

Qurollar o'quv qurollar namunalari o'rgatiladi, faqatgina ayrim hollarda qurolni ehtiyotkorlik bilan ishlatgan holda jangovar qurol o'rgatilishi mumkin. Qurollarni o'rgatishda o'quv qurol namunalari bilan birgalikda plakatlar, sxemalar, filmlar va rasmlardan keng foydalanishi kerak.

Quyidagi hollar bu qurollarning moddiy qismlarini o'rgatish bo'yicha metodik maslahatlar beradi.

O'Q OTAR QUROLLARINING TUNGI MOSLAMALARINI O'QITISH USLUBIYOTI

Tungi otish mo'ljalagichlarining moddiy qismlarini o'rganish natijasida ta'lim oluvchilar nishonlar qism va mexanizmlarining vazifasi, taktik texnik tavsifi, tuzilishi va harakatini mustahkam bilishi, nishonlarni otish uchun to'g'ri tayyorlashni va ular bilan aniq ishlashni bilishi, elektron-optik o'zgartirgichning ishlashida yuz beradigan fizik jarayonlarning mohiyatini tushunishi kerak.

Tungi mo'ljallagichning moddiy qismini o'rganishga oid mashg'ulotlarda nishon, nishon o'rnatilgan qurol, elektrlashtirilgan stend, chizma va plakatlarga ega bo'lishi zarur.

Tungi mo'ljallagichning taktik texnik tavsiflarini o'rganishda nishonning ko'rinish uzoqligi agar nishon ochiq fonda joylashgan bo'lsa, yoki boshqa joyga ko'chirilsa eng yuqori yoritilgan joyda, oshishi va qorong'u tunda, qora fonda, himoya rangidagi kiyimda harakatlanishda kamayishini ta'kidlash lozim.

Mo'ljalagich tuzilishini tushuntira borib, komandir qo'shimcha yoritishsiz nishonning ish asosiga joyning tunda tabiiy yoritilishida nishon tasviri ravshanligi elektron-optik kuchaytirishga asosi qo'yilganligini ko'rsatadi, chizmada predmet tasvir tuzilishini tunggi qo'shimcha yoritishsiz nishon bilan ko'rsatadi va elektron optik o'zgartirgich qoidalarini tushuntiradi. So'ng u qism va mexanizmlarni ko'rsatib, ularning tuzilishini «Qurol qism va mexanizmlarining vazifasi va tuzilishini o'rganish uslubiyoti» nomli 4-bo'limdan yuqorida bayon etilgan tartibda tushuntiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'R MV ning 2023 yil 2 maydagi 560-sonli buyrug'i. "Quruqlikdagi qo'shinlarning o'qotar qurollari, jangovar mashinalari va tanklardan otish kursi (QQ O'Q, JM va T OK) MO'B sida otish tayyorgarligi.
2. Otish tayyorgarligi 4-qism. "Otish mashg'ulotlarini tashkillashtirish va o'tkazish uslubiyoti (darslik)".